



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 13 777 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 11 564 ta).

Shuningdek, ushbu davrga 20 266 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 109,3 % ni tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan





## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


yanvar-noyabr oylari holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 181 tani tashkil etdi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 40,3 foiz, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 26,0 foiz, sanoat – 11,2 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida 20,3 foiz, Sardoba – 13,0 foiz, Sirdaryo – 11,3 foiz va Oqoltin – 9,1 foiz tumanlar hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	443	13,3 %	Boyovut t.	172	13,9 %
Sardoba t.	283	27,3 %	Sayxunobod t.	153	14,0 %
Sirdaryo t.	246	14,7 %	Yangiyer sh.	150	15,9 %
Oqoltin t.	198	22,6 %	Xovos t.	127	15,1 %
Mirzaobod t.	191	15,3 %	Shirin sh.	36	9,7 %
Guliston t.	182	16,2 %			

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- dekabr holatiga 13 777 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 foizni tashkil etdi.



Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,6 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,6 foiz, sanoat – 11,5 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida 24,2 foiz, Sirdaryo – 12,2 foiz, Mirzaobod – 9,1 foiz va Boyovut – 9,0 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	3 329	Sardoba t.	1 038
Sirdaryo t.	1 674	Yangiyer sh.	942
Mirzaobod t.	1 249	Oqoltin t.	878
Boyovut t.	1 240	Xovos t.	839
Guliston t.	1 122	Shirin sh.	370
Sayxunobod t.	1 096		

2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 122 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida



Guliston sh.	421	15,2 %	Boyovut t.	168	16,7 %
Sardoba t.	280	30,9 %	Sayxunobod t.	152	16,3 %
Sirdaryo t.	242	17,1 %	Yangiyer sh.	144	17,3 %
Oqoltin t.	197	26,1 %	Xovos t.	122	18,4 %
Mirzaobod t.	186	17,1 %	Shirin sh.	34	11,3 %
Guliston t.	176	18,4 %			



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- dekabr holatiga 11 630 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan (1 192 ta) o'sish sur'ati 111,4 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 18,3 foiz, sanoat – 13,6 foiz, qurilish – 9,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,9 foiz, tashish va saqlash – 3,0 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,2 foiz, boshqa turlari – 8,9 foiz.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 771	Sardoba t.	906
Sirdaryo t.	1 418	Yangiyer sh.	831
Mirzaobod t.	1 088	Oqoltin t.	756
Boyovut t.	1 006	Xovos t.	662
Guliston t.	959	Shirin sh.	302
Sayxunobod t.	931		

2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 26,8 foiz, hamda sanoat 11,6 foizni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	421	15,3 %	Boyovut t.	168	16,8 %
Sardoba t.	280	31,0 %	Sayxunobod t.	152	16,4 %
Sirdaryo t.	241	17,2 %	Yangiyer sh.	144	17,4 %
Oqoltin t.	197	26,1 %	Xovos t.	122	18,6 %
Mirzaobod t.	186	17,2 %	Shirin sh.	34	11,3 %
Guliston t.	176	18,4 %			

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish surati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (23,8 foiz), Sirdaryo (12,1 foiz), Mirzaobod (9,3 foiz) va Boyovut (8,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 53,9 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	2 753	Sardoba t.	903
Sirdaryo t.	1 405	Yangiyer sh.	828
Mirzaobod t.	1 081	Oqoltin t.	754
Boyovut t.	1 001	Xovos t.	657
Guliston t.	956	Shirin sh.	300
Sayxunobod t.	926		




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Sardoba t.	360
Mirzaobod t.	351
Sayxunobod t.	279
Oqoltin t.	270
Guliston t.	208
Boyovut t.	201
Sirdaryo t.	176
Xovos t.	147
Guliston sh.	94
Yangiyer sh.	41
Shirin sh.	20



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Guliston sh.	338
Sirdaryo t.	235
Boyovut t.	160
Mirzaobod t.	153
Yangiyer sh.	146
Sayxunobod t.	144
Guliston t.	121
Xovos t.	103
Sardoba t.	74
Oqoltin t.	59
Shirin sh.	50



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 11,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,8 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,6 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 1,0 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	370
Mirzaobod t.	119
Sirdaryo t.	96
Yangiyer sh.	82
Guliston t.	77
Boyovut t.	69
Sayxunobod t.	69
Xovos t.	60
Oqoltin t.	57
Sardoba t.	39
Shirin sh.	36



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 20,3 foiz ulushni tashkil etdi.

258


Fuqarolik  
obyektlarini qurish

218

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

598


Bino va  
inshootlar qurish



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	1 228
Sirdaryo t.	609
Guliston t.	394
Boyovut t.	379
Yangiyer sh.	335
Sardoba t.	319
Mirzaobod t.	315
Sayxunobod t.	296
Oqoltin t.	255
Xovos t.	229
Shirin sh.	127



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 4 477 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,3 foiz ulushni tashkil etdi.

373

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 307

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


2 806

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Guliston sh.	183
Sirdaryo t.	78
Boyovut t.	71
Yangiyer sh.	66
Guliston t.	60
Sayxunobod t.	53
Oqoltin t.	44
Sardoba t.	43
Mirzaobod t.	41
Xovos t.	28
Shirin sh.	25



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 71,8 foizni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'harlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 5,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,7 foiz ulushini tashkil etdi.

37

Yashash bo'yicha xizmatlar



655

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar






2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	73
Yangiyer sh.	20
Sirdaryo t.	18
Boyovut t.	18
Guliston t.	11
Shirin sh.	9
Sardoba t.	8
Oqoltin t.	7
Sayxunobod t.	4
Mirzaobod t.	3
Xovos t.	2



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,2 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 30,6 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 49,2 foizini tashkil etdi.






2023- yil 1- dekabr holatiga koʻra, birlikda

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	91
Sirdaryo t.	32
Yangiyer sh.	21
Guliston t.	9
Mirzaobod t.	8
Sardoba t.	7
Sayxunobod t.	7
Boyovut t.	6
Xovos t.	5
Oqoltin t.	5
Shirin sh.	2



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 141 ta yoki 73,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

Ushbu sohadagi korxonalar sonining 90,2 foizi sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat yoʻnalishiga toʻgʻri keladi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 6,7 foizini tashkil etdi.

13

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

6




174

Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Guliston sh.	64
Sirdaryo t.	49
Yangiyer sh.	46
Mirzaobod t.	42
Xovos t.	40
Sayxunobod t.	32
Boyovut t.	29
Oqoltin t.	16
Guliston t.	15
Sardoba t.	8
Shirin sh.	6



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki: quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tashish va saqlash xizmati yo'nalishining 73,2 foizni tashkil etdi; ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishi 24,2 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 2,6 foizni tashkil etdi;



### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

29,6 %


24,8 %

18,5 %


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

14,9 %

19,9 %




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Guliston sh.	384	17,4 %	Boyovut t.	140	17,6 %
Sardoba t.	272	33,2 %	Sayxunobod t.	125	16,3 %
Sirdaryo t.	233	18,6 %	Yangiyer sh.	124	17,1 %
Oqoltin t.	190	27,9 %	Xovos t.	111	18,9 %
Mirzaobod t.	174	18,7 %	Shirin sh.	32	12,7 %
Guliston t.	160	21,4 %			


2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 11 564 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 9 770 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 39,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,3 foiz hamda sanoat – 12,8 foizni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Guliston sh.	2 212	Guliston t.	748
Sirdaryo t.	1 254	Yangiyer sh.	724
Mirzaobod t.	932	Oqoltin t.	680
Sardoba t.	819	Xovos t.	588
Boyovut t.	795	Shirin sh.	251
Sayxunobod t.	767		

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil 1- dekabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan bo'lib, xususiy korxonalarining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Guliston shahri - 436 ta, Boyovut - 153 ta, Guliston - 141 ta va Sirdaryo tumanida -119 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan; savdo sohasida – 544 ta, sanoat – 153 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 152 ta va qurilish sohasida – 133 ta.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	436	Yangiyer sh.	71
Boyovut t.	153	Sardoba t.	50
Guliston t.	141	Oqoltin t.	48
Sirdaryo t.	119	Xovos t.	46
Sayxunobod t.	112	Shirin sh.	38
Mirzaobod t.	88		



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 282 ta, 2019- yilning mos davriga nisbatan 109 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 25 tadan 63 taga (o'sish 38 taga), sanoatda – 79 tadan 100 taga (o'sish 21 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi – 27 tadan 77 taga (o'sish 50 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	78	Oqoltin t.	15
Guliston t.	42	Sayxunobod t.	13
Mirzaobod t.	32	Shirin sh.	10
Boyovut t.	32	Xovos t.	5
Yangiyer sh.	27	Sardoba t.	2
Sirdaryo t.	26		

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarni faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida chet el investitsiyasi ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining o'sish sur'ati 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 2,3 martaga ko'paygan.


### Hududlar kesimida

Sirdaryo t.	14	24,1 %	Oqoltin t.	3	42,9 %
Guliston sh.	12	28,6 %	Guliston t.	2	16,7 %
Yangiyer sh.	8	40,0 %	Boyovut t.	1	11,1 %
Sayxunobod t.	5	45,5 %	Shirin sh.	1	16,7 %
Mirzaobod t.	4	15,4 %	Xovos t.	1	12,5 %

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 52 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,6 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 17,7 foiz), Turkiya (ulushi 14,8 foiz), Qozog'iston (ulushi 10,8 foiz) va Afg'oniston (ulushi 5,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Sirdaryo t.	58	Boyovut t.	9
Guliston sh.	42	Xovos t.	8
Mirzaobod t.	26	Oqoltin t.	7
Yangiyer sh.	20	Shirin sh.	6
Guliston t.	12	Sardoba t.	4
Sayxunobod t.	11		

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 94 tasi qo'shma korxonalar, 109 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

25	Sirdaryo t.	33
23	Guliston sh.	19
13	Mirzaobod t.	13
15	Yangiyer sh.	5
9	Guliston t.	3
6	Boyovut t.	3
7	Sayxunobod t.	4
3	Oqoltin t.	4
1	Sardoba t.	3
5	Xovos t.	3
2	Shirin sh.	4

Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

2023- yil 1- dekabr holatiga chet el investitsiyalari ishtirokida ro'yxatga olingan korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 53 taga ko'payib, 273 tani tashkil etdi.

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik registrlarni  
yuritish boʻlimi  
Tel.: 67 236 70 00